Xalqaro axborot-ma’rifiy
«Global Atomic Quiz 2026» loyihasini o‘tkazish qoidalari

1. Umumiy qoidalar

Ushbu Qoidalar «Global Atomic Quiz 2026» xalqaro axborot-ma’rifiy loyihasini (keyingi o‘rinlarda – Loyiha) o‘tkazish tartibi va muddatlarini, jumladan, Loyihada ishtirok etish qoidalari hamda Loyiha yakunlarini chiqarish tartibini belgilaydi.

Loyihaning maqsadi atom fani va texnologiyalarini ommalashtirish, xalqaro auditoriyaning ularning inson hayotining turli sohalarida qo‘llanilishi, atom sohasining zamonaviy yutuqlari va rivojlanish istiqbollari, shuningdek, atom texnologiyalaridan tinch maqsadlarda foydalanishning afzalliklari haqidagi xabardorligini oshirishdan iborat.

Loyihaning maqsadli auditoriyasi (keyingi o‘rinlarda – Ishtirokchilar) – ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan talablarga javob beradigan va shartlarga rioya qiladigan dunyoning istalgan mamlakatidan bo‘lgan shaxslarni qamrab oluvchi keng xalqaro auditoriyadir.

Loyihada ishtirok etish orqali Ishtirokchilar ushbu qoidalarga (keyingi o‘rinlarda – Qoidalar) to‘liq rozilik bildiradilar.

Loyiha ushbu Qoidalar bilan tartibga solinadi, notijorat axborot-ma’rifiy tadbir hisoblanadi hamda reklama maqsadidagi rag‘batlantiruvchi tadbir yoki lotereya hisoblanmaydi.

Umumiy ma’lumot

1.1. Nomi: «Global Atomic Quiz» xalqaro axborot-ma’rifiy loyihasi.

1.2. Loyiha www.quiz.atomforyou.com saytida o‘tkaziladi, bunda Ishtirokchilarning joylashgan hududi va qaysi davlatga mansubligiga doir cheklovlar mavjud emas. Loyihani o‘tkazish munosabati bilan yuzaga keladigan munosabatlarga Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi qo‘llaniladi.

1.3. Loyihaning tashkilotchisi: Atom energiyasi bo‘yicha axborot markazlarini rivojlantirish avtonom notijorat tashkiloti «Kelajak energiyasi» (ANT «Kelajak energiyasi»), INN 7726385219, KPP 772601001, yuridik manzili: 117105, Moskva shahri, Varshava shossesi, 3-uy (keyingi o‘rinlarda – Tashkilotchi).

1.4. Loyihani o‘tkazish muddatlari:

1.4.1. Loyihani o‘tkazishning umumiy muddati: 2026-yil 10-noyabrdan G‘oliblarga Sovrinlar topshirilgunga qadar, lekin 2026-yil 31-dekabrdan kechiktirmay. Loyihani o‘tkazishning umumiy muddati Ishtirokchilar Loyihada qatnashish uchun zarur harakatlarni amalga oshiradigan davrni, Tashkilotchi Loyiha G‘oliblarini aniqlashi uchun zarur vaqtni, shuningdek, Loyiha yakunlariga ko‘ra G‘oliblarga Sovrinlarni topshirish uchun zarur vaqtni o‘z ichiga oladi.

1.4.2. Loyihaning asosiy qismi – atom texnologiyalarining kundalik hayotda qo‘llanilishi va atom sohasidagi jahon yutuqlariga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop viktorina (keyingi o‘rinlarda – Viktorina) topshiriqlarini bajarish – 2026-yil 10-noyabr kuni Ishtirokchining mahalliy vaqti bo‘yicha (u joylashgan hududning vaqt mintaqasiga muvofiq) soat 00:00:01 dan 23:59:59 gacha o‘tkaziladi.

1.4.2.1. Ishtirokchining vaqt mintaqasi uning qurilmasi geolokatsiyasi (IP manzili) asosida avtomatik ravishda aniqlanadi. Har bir Ishtirokchi uchun Viktorinadan foydalanish imkoniyati

belgilangan vaqt mintaqasiga muvofiq avtomatik ravishda ochiladi va yopiladi, bu esa turli mamlakatlardagi Ishtirokchilar uchun teng sharoitlarni ta’minlaydi.

1.4.2.2. Ishtirokchi o‘zining joylashuvi haqidagi ma’lumotlarni o‘zgartiradigan VPN xizmatlari, proksi-serverlar va boshqa vositalardan foydalangan taqdirda vaqt mintaqasi noto‘g‘ri aniqlangani va buning oqibatida Viktorinadan foydalanish cheklangani uchun Tashkilotchi javobgar bo‘lmaydi.

1.4.3. Loyiha yakunlarini chiqarish va G‘oliblarni e’lon qilish muddati – 2026-yil 23-noyabrgacha, shu kun ham qo‘shilgan holda.

1.4.4. Qoidalarga muvofiq Loyihada ishtirok etish natijalariga ko‘ra G‘oliblarga Sovrinlarni topshirish davri – 2026-yil 23-noyabrdan 31-dekabrgacha, shu sanalar ham qo‘shilgan holda.

1.4.5. Sovrinlarni topshirishning aniq sanalari keyinroq belgilanadi va Tashkilotchi bu haqda Loyiha Ishtirokchilariga alohida xabar beradi.

1.4.6. 1.4.3–1.4.5-bandlarda ko‘rsatilgan muddatlar Tashkilotchi tomonidan Ishtirokchilarni www.quiz.atomforyou.com Loyiha saytida xabardor qilgan holda o‘zgartirilishi mumkin.

1.4.7. Tashkilotchiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra (jumladan, fors-major holatlari, tabiiy ofatlar, G‘olib joylashgan mamlakatda raqamli xizmatlar va mahsulotlarni taqdim etishga cheklovlar yoki taqiqlar joriy etilishi va boshqa holatlar sababli) Sovrinlarni G‘oliblarga topshirish imkonsiz bo‘lsa, Loyiha Ishtirokchilariga bu haqda qo‘shimcha ma’lumot beriladi. Bunday holatda Tashkilotchi o‘z ixtiyoriga ko‘ra tanlov Sovrinlarini topshirishni bekor qilish, ularni boshqa Sovrinlar bilan almashtirish yoki topshirish muddatlarini o‘zgartirish huquqiga ega.

1.5. Loyiha Ishtirokchilarini xabardor qilish usullari:

Loyiha Ishtirokchilari Qoidalar, Loyihani o‘tkazish muddatlari va natijalari haqida Internetdagi quiz.atomforyou.com saytida, uning barcha til versiyalarida (keyingi o‘rinlarda – Sayt) xabardor qilinadi.

Viktorina boshlanishidan oldin Saytda Loyiha tavsifi, Viktorina boshlanishigacha qolgan vaqtning teskari hisobi, interaktiv o‘yin mexanizmi va Viktorina boshlanishi haqida eslatma olish uchun obuna shaklini o‘z ichiga olgan axborot sahifasi joylashtiriladi. Eslatmaga obuna bo‘lish Viktorinada qatnashish uchun ro‘yxatdan o‘tish hisoblanmaydi. Interaktiv o‘yin mexanizmi tanlovning bir qismi emas, ro‘yxatdan o‘tishni talab qilmaydi va Ishtirokchining Viktorinadagi natijalariga ta’sir ko‘rsatmaydi.

1.5.1. Qoidalar Saytning barcha til versiyalarida e’lon qilinadi. Qoidalarning rus tilidagi matni bilan boshqa tillardagi tarjimalari o‘rtasida tafovut bo‘lsa, rus tilidagi matn ustuvor hisoblanadi.

1.6. Ishtirokchilar va/yoki ularning ota-onalari yoxud qonuniy vakillari bilan dastlabki aloqa, shu jumladan shaxsga doir ma’lumotlarni tekshirish, faqat Loyihaning info@atomforyou.com elektron pochta manzilidan amalga oshiriladi. Saytning avtomatik tizim xabarnomalari (natijalar to‘g‘risidagi xabarlar, sertifikatlarni yuborish va hokazolar) Loyihaning elektron pochta manzilidan jo‘natiladi.

2. Ishtirokchilar va Loyihada ishtirok etish shartlari

2.1. Loyihaning tanlov qismida Saytdagi ro‘yxatdan o‘tish shaklini to‘ldirgan, amaldagi va noyob elektron pochta manzilini ko‘rsatgan hamda shaxsga doir ma’lumotlarini qayta ishlashga rozilik bergan dunyoning istalgan mamlakatidan bo‘lgan jismoniy shaxslar ishtirok etishi mumkin. Ro‘yxatdan o‘tmasdan Viktorinada qatnashish mumkin emas.

2.2. O‘zi yashayotgan yoki fuqarosi bo‘lgan mamlakatning milliy qonunchiligi (keyingi o‘rinlarda – milliy qonunchilik) talablariga ko‘ra ushbu shartlarda nazarda tutilgan harakatlarni mustaqil ravishda amalga oshira olmaydigan voyaga yetmagan Ishtirokchilar ularni ota-onalari (yoki qonuniy vakillari) orqali va/yoki ularning yordami bilan amalga oshiradilar.

2.2.1. Voyaga yetmagan Ishtirokchilarning ota-onalari (qonuniy vakillari) ushbu Qoidalar bilan tanishish hamda milliy qonunchilikka muvofiq zarur roziliklarni, jumladan, voyaga yetmaganning Loyihada ishtirok etishi va uning shaxsga doir ma’lumotlarini qayta ishlashga rozilikni taqdim etish uchun mustaqil ravishda javobgardirlar.

2.2.2. Tashkilotchi voyaga yetmagan Ishtirokchilarning Loyiha doirasidagi barcha harakatlari ota-onalari yoki qonuniy vakillarining roziligi bilan yoxud ular orqali amalga oshirilgan va milliy qonunchilikka zid emas deb hisoblaydi.

2.2.3. Voyaga yetmagan Ishtirokchining ota-onalari yoki qonuniy vakillarining zarur roziligi olinmagani aniqlansa, Tashkilotchi uni Loyihada ishtirok etishdan chetlashtirishga haqli.

2.3. Loyihaning tanlov qismida quyidagi shaxslarning ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi:

- Tashkilotchining xodimlari, uning manfaatlarini ifodalovchi shaxslar va ularning oila a’zolari;
- Tashkilotchi bilan shartnomaviy munosabatlarda bo‘lgan hamda Loyihani tashkil etish va/yoki o‘tkazishga bog‘liq uchinchi shaxslarning xodimlari va vakillari, shuningdek ularning oila a’zolari;
- «Rosatom» davlat korporatsiyasi tarkibidagi korxonalarning xodimlari va vakillari.

2.4. Loyiha Ishtirokchilari, jumladan, ushbu Qoidalarga muvofiq Loyiha haqida axborot olish huquqiga egadirlar.

2.5. Loyiha Ishtirokchilarining quyidagi majburiyatlari mavjud:

- Loyiha o‘tkazilayotgan davrda uning Qoidalariga rioya qilish;
- Loyiha Qoidalariga muvofiq Tashkilotchiga o‘zi haqida ishonchli ma’lumot taqdim etish;
- bittadan ortiq hisob qaydnomasini ro‘yxatdan o‘tkazmaslik, o‘zga shaxslarning ma’lumotlari, avtomatlashtirilgan vositalar (dasturlar, skriptlar, botlar) va Viktorinadan insofsiz yo‘llar bilan o‘tishning boshqa usullaridan foydalanmaslik;
- ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

2.6. Tashkilotchi shubhali faollik aniqlangan Ishtirokchilarning Viktorinadan foydalanishini bloklash va/yoki ularning natijalarini tanlov doirasida ko‘rib chiqmaslik huquqiga ega. Bunga qayta ro‘yxatdan o‘tish, Viktorinadan qayta o‘tishga urinishlar (jumladan, Viktorina kuni bir xil IP manzildan), shuningdek avtomatlashtirilgan vositalardan foydalanish holatlari kiradi.

3. Loyiha tanlovida ishtirok etish tartibi. Loyiha G‘oliblarini aniqlash

3.1. Loyihaning tanlov qismi yakunlariga ko‘ra, Loyiha Qoidalariga muvofiq Tashkilotchidan sovrinlar oladigan G‘oliblar aniqlanadi (keyingi o‘rinlarda – Sovrinlar).

3.2. Loyihaning tanlov qismida ishtirok etish uchun Ishtirokchi Saytda ro‘yxatdan o‘tishi kerak. Ro‘yxatdan o‘tish va Viktorinada qatnashish uchun ariza berish bitta jarayonda – ro‘yxatdan o‘tish shaklini to‘ldirish va undagi ma’lumotlarni Tashkilotchiga yuborish orqali amalga oshiriladi.

3.2.1. Saytda ro‘yxatdan o‘tish uchun talabgor tegishli shaklni to‘ldirib, o‘zi haqida quyidagi ma’lumotlarni taqdim etishi lozim:

- Familiyasi, ismi;
- Tug‘ilgan sanasi;
- Elektron pochta manzili;
- Mamlakati;
- Shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlashga rozilik belgisi (bunday roziliksiz ishtirok etish mumkin emas), Maxfiylik siyosati va ushbu Qoidalarni qabul qilganini tasdiqlash, shuningdek axborot xabarlarini olishga rozilik.

3.2.2. Shakl to‘ldirilganidan so‘ng Ishtirokchi Viktorinada qatnashishi mumkin; uning natijalari faqat barcha savollarga javob berilganidan keyin qayd etiladi va sertifikat olish imkoniyati ham shundan keyingina paydo bo‘ladi. Ishtirokchiga shaxsiy kabinet taqdim etilmaydi.

3.2.3. Ro‘yxatdan o‘tish shaklini lozim darajada to‘ldirmagan (to‘liq bo‘lmagan yoki noto‘g‘ri ma’lumot kiritgan) Ishtirokchilarning Loyihaning tanlov qismida qatnashishiga Tashkilotchi rad javobini berishga haqli. Ro‘yxatdan o‘tgandan keyin Ishtirokchi Saytda ro‘yxatdan o‘tish vaqtida ko‘rsatgan elektron pochta manzilini o‘zgartira olmaydi. Ro‘yxatdan o‘tish vaqtida ko‘rsatilgan familiya va ism Ishtirokchining sertifikatini rasmiylashtirish uchun ishlatiladi.

3.3. G‘oliblar quyidagi tartibda aniqlanadi:

3.3.1. Ro‘yxatdan o‘tgan Ishtirokchilar Viktorina topshiriqlarini bajarishlari shart.

3.3.1.1. Viktorina Internetdagi quiz.atomforyou.com Saytida, uning barcha til versiyalarida o‘tkaziladi. Ishtirokchi Viktorinadan o‘tish tilini mustaqil ravishda tanlaydi.

3.3.1.2. Viktorina atom texnologiyalarining kundalik hayotda qo‘llanilishiga bag‘ishlangan va bir kunning voqealar ketma-ketligi (ertalab, kunduz, kechqurun, tun) bilan birlashtirilgan 17 (o‘n yetti) savoldan iborat. Har bir savol uchun 4 (to‘rtta) javob varianti beriladi, Ishtirokchi ulardan bitta to‘g‘ri javobni tanlashi lozim.

3.3.1.3. Ishtirokchi faqat oldingi savolga javob berganidan keyin keyingi savolga o‘tishi mumkin. Viktorinaning barcha savollariga javob berilganidan keyin Ishtirokchiga to‘g‘ri javoblar va ularning izohlari ko‘rsatiladi.

3.3.1.4. Ishtirokchi Viktorinadan faqat bir marta o‘tishi mumkin: amaldagi va noyob elektron pochta manziliga ega bitta hisob qaydnomasi uchun faqat bitta yakunlangan urinish hisobga olinadi. Viktorinadan bir necha marta o‘tgan (jumladan, turli hisob qaydnomalaridan foydalangan) Ishtirokchilar tanlovda hisobga olinmaydi.

3.3.1.5. Viktorinadan o‘tish vaqti taymer yordamida qayd etiladi. Taymer Ishtirokchi Viktorinani boshlash tugmasini bosgan paytda ishga tushadi va oxirgi savolga javob berilganidan so‘ng to‘xtaydi. O‘tish vaqti tizimda saqlanadi va G‘oliblarni aniqlashda hisobga olinadi.

3.3.1.6. Agar Ishtirokchi Viktorinani tugatmasdan Saytdan chiqsa yoki sahifani yangilasa, urinish bekor qilinadi: javoblar ham, sarflangan vaqt ham saqlanmaydi.

3.3.1.7. Viktorina yakunlangach, Ishtirokchiga uning natijasi (to‘plagan ballari soni va o‘tish vaqti) ko‘rsatiladi hamda elektron sertifikat beriladi (Qoidalarning 4.1-bandi). Ishtirokchi, shuningdek, Viktorinani baholashga oid qisqa majburiy so‘rovnomani to‘ldirishi kerak; so‘rovnomada qatnashish ixtiyoriy bo‘lib, natijaga ta’sir qilmaydi.

3.3.1.8. To‘g‘ri javoblar soni va Viktorinadan o‘tish tezligiga asoslanib, Ishtirokchilarning avtomatik reytingi tuziladi. Ishtirokchi qancha ko‘p ball to‘plasa, uning reytingdagi o‘rni shuncha yuqori bo‘ladi.

3.3.2. Ishtirokchining yakuniy bali quyidagi tartibda shakllantiriladi:

3.3.2.1. Ishtirokchining yakuniy bali to‘g‘ri javoblar soniga asoslanib, Viktorina savollariga javob berish tezligi (vaqt koeffitsiyenti) hisobga olingan holda aniqlanadi.

3.3.2.2. Yakuniy ballar yig‘indisi qancha yuqori bo‘lsa, Ishtirokchining reytingdagi o‘rni shuncha yuqori bo‘ladi.

3.3.2.3. Bir nechta Ishtirokchining ballari teng bo‘lsa, Viktorinani tezroq yakunlagan Ishtirokchi yuqoriroq o‘rinni egallaydi.

3.3.3. Loyiha G‘oliblarini tasdiqlash:

3.3.3.1. G‘oliblarning geografik jihatdan muvozanatli taqsimlanishini ta’minlash maqsadida Tashkilotchi 2026-yil 23-noyabrgacha finalchilar reytingi va o‘zi belgilagan mamlakat/hudud kvotasiga muvofiq Viktorinaning 100 nafar G‘olibini aniqlaydi. Har bir mamlakat/hudud uchun kvota Tashkilotchi tomonidan Loyiha o‘tkazilganidan keyin Ishtirokchilarning mamlakatlar va hududlar bo‘yicha umumiy taqsimotiga mutanosib ravishda belgilanadi. Ishtirokchining mamlakati ro‘yxatdan o‘tishda ko‘rsatilgan ma’lumotlarga ko‘ra aniqlanadi.

3.3.3.2. Tashkilotchi ushbu Qoidalarning 1.4.2-bandida ko‘rsatilgan muddat tugaganidan keyin 13 (o‘n uch) kalendar kundan kechiktirmay Loyiha Saytida barcha G‘oliblarning familiyasi va ismi hamda foydalanuvchining noyob identifikatori (ID) ko‘rsatilgan ro‘yxatni e’lon qiladi. G‘oliblarga elektron pochta orqali ham xabarnomalar yuboriladi.

3.3.3.3. Tashkilotchi G‘oliblarning Ishtirokchilarga qo‘yiladigan talablarga muvofiqligini va ro‘yxatdan o‘tishda taqdim etilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligini tekshirish uchun ularga elektron pochta orqali murojaat qiladi. Shu bilan birga, Tashkilotchi G‘oliblardan Sovrinlarni olishni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha ma’lumotlarni Loyihaning elektron pochta manziliga yuborishni talab qiladi.

3.3.3.4. Agar G‘olib xabarnomani olgan paytdan boshlab 4 (to‘rt) kalendar kun ichida Tashkilotchiga javob bermasa va/yoki Tashkilotchida ro‘yxatdan o‘tishda ko‘rsatilgan ma’lumotlarning Ishtirokchining haqiqiy ma’lumotlariga mosligiga asosli shubha tug‘ilsa, shu jumladan elektron pochta manzili ro‘yxatdan o‘tishda ko‘rsatilgan manzilga mos kelmasa, Ishtirokchi shaxsga doir ma’lumotlarini buzib ko‘rsatgan bo‘lsa yoki uydirma va/yoki boshqa

shaxsning ismi bilan ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, uni G‘olib deb tan olish to‘g‘risidagi qaror bekor qilinadi va Tashkilotchi yuqorida bayon etilgan tartibga muvofiq boshqa G‘olibni tanlash huquqiga ega bo‘ladi.

4. Loyiha Ishtirokchilariga beriladigan Sovrinlar

4.1. Viktorinani yakunlagan barcha Ishtirokchilar o‘z ismi ko‘rsatilgan elektron ishtirokchilik sertifikatini oladilar. Sertifikat Viktorina yakunlangach, Ishtirokchi Viktorinadan o‘tgan til versiyasida avtomatik ravishda shakllantiriladi va ro‘yxatdan o‘tish vaqtida ko‘rsatilgan familiyasi hamda ismini o‘z ichiga oladi. Ishtirokchi sertifikatni yuklab olishi, uni o‘z elektron pochta manziliga yuborishi va ijtimoiy tarmoqlarda ulashishi mumkin. Viktorinani yakunlagan barcha Ishtirokchilarga bir xil sertifikat beriladi, egallangan o‘ringa qarab farqlanmaydi.

4.2. Tashkilotchi belgilagan mamlakat/hudud kvotasi va finalchilar reytingiga muvofiq Loyihaning tanlov qismida ko‘pi bilan 100 nafar Ishtirokchi G‘olib bo‘lishi mumkin.

4.3. Loyihaning tanlov qismi G‘oliblari raqamli Sovrinlar oladilar: ta’lim platformalarining onlayn kurslaridan (jumladan, xorijiy tillarni o‘rganish kurslaridan) foydalanish imkoniyati, premium obunalar va ilovalar hamda dasturiy ta’minotdan foydalanish litsenziyalari, shuningdek raqamli xizmatlarga obunalar (keyingi o‘rinlarda – Sovrin).

4.3.1. G‘oliblar ro‘yxati e’lon qilingan kundan boshlab 10 (o‘n) kalendar kun ichida Tashkilotchi har bir G‘olibning elektron pochta manziliga Sovrinni olish tartibi va buning uchun zarur ma’lumotlar ro‘yxati ko‘rsatilgan xat yuboradi.

4.3.2. G‘olib Sovrinni o‘z elektron pochta manziliga yuborilgan shaxsiy havola orqali kirish mumkin bo‘lgan sovrinlar sahifasidagi taklif etilgan ro‘yxatdan tanlaydi. Sovrinlarni tanlash G‘oliblardan arizalar kelib tushish tartibida amalga oshiriladi.

4.3.3. Har bir turdagi Sovrinlar soni qat’iy cheklangan. Agar tanlangan Sovrin allaqachon taqsimlangan bo‘lsa, G‘olib qolgan Sovrinlar orasidan boshqa variantni tanlashi mumkin. Sovrinni taqdim etish imkonsiz bo‘lsa, Tashkilotchi uni muqobil Sovrin bilan almashtirish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

4.3.4. Ayrim Sovrinlardan foydalanish muayyan mamlakatda cheklangan bo‘lishi, G‘olibdan tegishli xizmatda hisob qaydnomasi bo‘lishini talab qilishi yoki boshqa faollashtirish shartlariga ega bo‘lishi mumkin; bunday shartlar sovrinlar sahifasida ko‘rsatiladi. Tegishli xizmatning shartlari va cheklovlari yoki G‘olib mamlakatining qonunchiligi bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra Sovrindan foydalanishning imkoni bo‘lmagani uchun Tashkilotchi javobgar bo‘lmaydi.

4.3.5. Sovrinlar G‘olib ko‘rsatgan elektron pochta manziliga faollashtirish kodi, sovg‘a sertifikati (gift-kod) yuborish yoki tegishli xizmat nazarda tutgan boshqa usul orqali taqdim etiladi. Sovrinlarning puldagi ekvivalenti to‘lanmaydi va Sovrinlarni pulga almashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

4.4. Finalchilar reytingi va Tashkilotchi belgilagan mamlakat/hudud kvotasiga muvofiq Loyihaning tanlov qismidagi 3 (uch) nafar G‘olib bosh sovrin – 2027-yilda Rossiyaga sayohatni (keyingi o‘rinlarda – Bosh sovrin) qo‘lga kiritadi.

4.4.1. Bosh sovrinni qo‘lga kiritgan G‘oliblarga sayohatning shartlari, sanalari, dasturi va qatnashchilar tarkibi haqida Saytda ro‘yxatdan o‘tish vaqtida ko‘rsatilgan elektron pochta manziliga 2027-yil mart oyidan kechiktirmay alohida xabar yuboriladi.

5. Yakuniy qoidalar

5.1. Loyihani tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar orqali hal qilinishi lozim. Muzokaralar orqali hal etilmagan nizolar Rossiya Federatsiyasining moddiy va protsessual huquqiga muvofiq Tashkilotchi joylashgan yerdagi sudda ko‘rib chiqiladi.

5.2. Ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan barcha hujjatlarni olish va Loyihada ishtirok etish uchun zarur harakatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarni Ishtirokchilar, ularning ota-onalari va/yoki qonuniy vakillari mustaqil ravishda qoplaydilar.

5.3. Oddiy qo‘lyozma shaklida tayyorlangan barcha hujjatlar aniq va tushunarli yozilgan bo‘lishi lozim. Skanerlangan nusxalar va fotonusxalar to‘liq o‘qiladigan bo‘lishi kerak, aks holda Tashkilotchi ularni yaroqsiz deb topishga haqli.

5.4. Tashkilotchiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra Sovrinlarni rejalashtirilgan muddatlarda taqdim etishning imkoni bo‘lmasa, Tashkilotchi o‘z ixtiyoriga ko‘ra ularni topshirishni bekor qilish yoki muddatlarni o‘zgartirish huquqiga ega. Bunday holatda Ishtirokchi Loyihada ishtirok etishi bilan bog‘liq har qanday kompensatsiyani talab qilishga haqli emas.

5.5. Tashkilotchi Loyihani o‘tkazish va uning doirasidagi har qanday harakatlarni amalga oshirish, jumladan, Sayt faoliyatini ta’minlash va Sovrinlarni taqdim etish uchun uchinchi shaxslarni jalb qilish huquqiga ega.

5.6. Ishtirokchilarning shaxsga doir ma’lumotlari Saytda e’lon qilingan Maxfiylik siyosati va ro‘yxatdan o‘tish vaqtida berilgan ma’lumotlarni qayta ishlashga rozilikka muvofiq qayta ishlanadi.

5.7. Ushbu Qoidalar Viktorinani Saytda onlayn shaklda o‘tkazishni tartibga soladi. Loyiha doirasidagi oflayn tadbirlar (agar o‘tkazilsa) Tashkilotchining alohida hujjatlarida belgilangan tartibda o‘tkaziladi.